# O‘ZBEK MUMTOZ MUSIQASINING MAKTABGACHA TA’LIM KICHIK O‘RTA, TAYYORLOV GURUXLARIDA ESTETIK TARBIYALASHDAGI O`RNI

**Kurbanova Yulduz**
maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi, Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti

Mustaqillik yillarida Respublikada milliy madaniy merosni qayta tiklash va uning tarbiyaviy imkoniyatlari yordamida barkomol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu e’tiborning samarasi milliy musiqiy merosining totolitor tuzum ta’sirida o‘rganilmagan tarbiyaviy imkoniyatlarini o‘rganish yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Keyingi yillardan boshlab, san’at kollejlarida, san’at maktablarida, umumiy o‘rta ta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqaning yo‘lga qo‘yib borilishi, birinchi Prizidentimiz I. A. Karimov farmonlari asosida bevosita o‘z samarasini bermoqda. Bugungi kunga kelib maktabgacha ta’lim muassalarda olib borilayotgan musiqa mashg‘ulotining barkamol avlodni estetik tarbiyasini olib borishda xususan yoshlarni qiziqtirishda o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Oldingi vaqtlarda olib borilayotgan musiqiy mashg‘ulot turlari asosan, ovro‘pa – xalqining uslublari bilan amalga oshirilardi. Bugungi kunlarga kelib, yosh bolalarga o‘zbek mumtoz yo‘lidagi kuy va qo‘shiqlarga qiziqtirish ayni muddao bo‘lib kelmoqda. Masalan: Mumtoz musiqa - moxir sozanda xonanda bastakorlar ijodining maqomlar, murakkab kuylarni o‘z ichiga oladi. Mumtoz kuylar birinchi cholg‘u musiqasi ikkinchi ashula yo‘lidir. Ularga “Munojat”, “ Navro‘zi ajam”, “ Dilxiroj”, “ Jonon”, “ Lazgi” kabi kuylardan bolalarga o‘rgatishda o‘z samarasini bermoqda. Undan tashqari Farg‘ona - Toshkent, Samarqand - Buxoro, Qashqadaryo – Surxondaryo, Xorazm viloyati yo‘nalishining mumtoz kuylaridan unumli foydalanib kelinmoqda. Qolaversa sinf fonotekasidan musiqa tinglaganda “Bayot – 1”

“ Mushkuloti dugox” asarlarini bolalar maroq bilan tinglaganda kishini o‘ziga rom etadi.

Farg‘ona - Toshkent mumtoz kuylaridan “ Mustaxzod” ni kichik, o‘rta tayyorlov guruxdagi bolalar qiziqib tinglab raqsga tushish xarakatlarini bajarishga odatlanmoqda yoki Xorazm xalq mumtoz kuyi “lazgi” ni xam tinglab raqs xarakatlarini katta qiziqish bilan o‘rganib kelinmoqdalar.

“ Munojat” kuyini ijro etishda Navoiyxonlik badiiy kechalari o‘tkazishda, kuyni oxangiga bolalar g‘azallar, ruboiylardan o‘qishni o‘rganib nutqlarini o‘stirishda musiqani tinglab xam oxang bo‘lib bilim saviyasini yanada mustaxkamlaydi. “ Navro‘z ajam” kuyini ijro etishda bahor faslida navro‘z bayramona tadbirda o‘tkaziladigan mashg‘ulotni qir adirda yam - yashil o‘tloqlar endigina o‘sib borayotgan bir paytda buloqdan tiniq suvni olish maqsadida “ ko‘za” raqsini ijrosini o‘rgatish uchun foydalaniladi.

“ Dilxiroj”, “ Andijon pol’ka” musiqiy ohanglari asosan bolalarni jismoniy, badan tarbiya mashqlarini shakillantirishda qolaversa bayramona tadbirlarda o‘z vazifasini o‘taydi. Qashqadaryo - Surxondaryo mumtoz musiqalari maxalliy urf- odatlari va an’analari bilan alohida ajralib turadi. Bu o‘rindagi badiiy asarlardan ya’ni dostonining san’atidan unumli foydalaniladi. Almopish “ Soxibqiron” va boshqa badiiy asarlarni bolalarni - bolalar ongiga yetkazishdan iboratdir. Yurtimizdagi viloyatlar mumtoz musiqalarini o‘chmas tarixiy merosini maktabgacha ta’lim muassasalaridagi o‘rganib - o‘rgatib adabiy bilimlarni oshirishda o‘z samarasini beradi.

Xulosa qilinganda yosh - bolalarni asosan musiqaga ya’ni mumtoz kuy, ashulaga qiziqtirib borish maktabgacha ta’lim muassasalardan o‘z samarasini beradi qolaversa yosh bolalarni mumtoz musiqaga bo‘lgan mexri muxabbatini oshirishda bosqichma – bosqich ulg‘aygan sayin yuqori darajalar erishishiga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Бердиева, Ханифа Мейлиевна Изучение научных основ механизации и автоматизации управления сельским хозяйством в курсе физики средней школы (на материале сельских школ Узбекистана). https://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-02/dissertaciya-izuchenie-nauchnyh-osnov-mehanizatsii-i-avtomatizatsii-upravleniya-selskim-hozyaystvom-v-kurse-fiziki-sredney-shkoly-na-m

2. Бердиева Х.М., Шаманов М.Ҳ., Абдураҳмонова Р.Х., Гулбоева Б.Н. Технология и методика обучения учащихся общеобразовательных школ // Студенческий вестник: электрон. научн. журн. 2018. № 29(49). URL: https://internauka.org/journal/stud/herald/49 (дата обращения: 10.03.2022).

3. Бердиева Х.М. Развитие профессиональных коммуникативных навыков педагогов в сфере образования. https://s.siteapi.org/d955411c180ee78/docs/khhp4bee6u8g8goowcsg0gcg8os0kw

4. Berdiyeva Muhabbat Meyliyevna Pedagogical support and development of the intellectual opportunities of children in preschool education http://www.idpublications.org/wp-

content/uploads/2019/12/abstract-pedagogical-support-and-development-of-the-intellectual-opportunities-of-children.pdf

5. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat. The quality of preschool education at the present stage. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year : 2021, Volume : 11, Issue : 10. 10.5958/2249-7137.2021.02402.2 https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001

6. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat Tasks for preschool educators. 10.5958/2249-877X.2021.00078.3. https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023

7. Berdiyeva M.M. Formation of intellectual culture of a preschooler. https://scientific-conference.com/images/PDF/2019/55/International-scientific-review-LIV-ISBN.pdf

8. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Мактаб ўқувчиларини касб-хунарга ўргатиш йўллари. https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9626%20%282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf

9. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Таълим тизимини модернизациялашдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш усуллари. https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9626%20%282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf

10. Бердиева Мухабат Мейлиевна. Педагогик қўллаб-қувватлаш асосида илк ёшдаги болаларни интеллектуал ривожлантириш. “Профессионал таълим тизимида ислоҳотлар: малака ошириш таълим турида инновацион ғоялар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. https://staff.tiiame.uz/storage/users/546/articles/iMJfaUDoPQYZqSxUhG7olj9aZ9XSLff9CSErkMxL.pdf